



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 436 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	

Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	
Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish	209
Allanazarova Dilobar Baxromovna	
"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar	213
Boboqulova Aziza Adizovna	
Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely	217
Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar	222
I. Matrasulova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi	225
Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari	229
Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna	
Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari	232
Mashrapova Sevara Xabibovna	
Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients	237
Mukhsinov Sardor	
Pedagogikada metodlardan foydalanish	241
Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna	
Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari	245
Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna	
Talabalaridagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi	249
Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi	
Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish	253
Abdullayev Sherzodbek	
Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language	256
Keldiyarova Shakhriyoz, Keldiyarova Mohlaroyim	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi	267
Yunusova Malika Miralimovna	
Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля	270
Рахманкулова Дилафруз Азимовна	
Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования	274
Рахматова Нигина Исломовна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy san'atning tutgan o'rni	278
Sultonova Marxabo	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	283
Akramova Fotimabonu Kurbonovna	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	288
Axmedov Muslimjon Usmonovich	
Boshlang'ich ta'limda musiqa ta'limini sun'iy intellekt va shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari	295
Djumabayeva Muqaddas	



“Suvning agregat holatlari va tabiatda aylanishi” mavzusini o‘rgatishda 4K ko‘nikmasini rivojlantirish	300
<i>Esnazarov Abdiganiy Jamalatdinovich</i>	
Raqamli vositalar asosida mexatronika va robototexnika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	307
<i>Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li</i>	
Najmiddin Kubroning ilmiy merosi	311
<i>Jahongir Jumanov</i>	
Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda tejamkorlikni shakllantirishning o‘rni.....	314
<i>Jo‘rayev Alisher Tursinboyevich</i>	
Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi.....	318
<i>Jovliyev Jo‘rabek Alisher o‘g‘li</i>	
Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarda emotsional buzilishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari	322
<i>Manzitov Baxtiyor Tolibovich</i>	
Maktabgacha ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslari va samaradorligi	329
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna, Mayliyeva Nasiba Axmedovna</i>	
Ta‘lim menejmentida Predictive Analytics texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	332
<i>Primqulova Aziza Mirzaahmad qizi</i>	
Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari	337
<i>Chariyev Ulug‘bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</i>	
Z avlod psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari	342
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida refleksiya mexanizmining o‘rni	346
<i>Raxmonova Mahfuzaxon Xasan qizi</i>	
Iqtisodiy o‘shishning mohiyati	350
<i>Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna</i>	
Dasturlash ko‘nikmalarini baholashda generativ sun‘iy intellekt va gamifikatsiya integratsiyalashgan arxitektura modelini ishlab chiqish.....	353
<i>Sultonov Ravshonbek Otonazarovich</i>	
Ta‘lim klasteri sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati	356
<i>Sultanova Dilnura Abdurashidovna</i>	
Stereometriya darslarida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini va tasvirlash savodxonligini 3D modellashtirish vositasida rivojlantirish	359
<i>Sultonova Shahnoza Yusuf qizi, Sultonova Dilrabo Yusuf qizi</i>	
Chayon zahrlining biologik xususiyatlari, toksikologik ta‘siri va biotexnologiyadagi istiqbolli qo‘llanilishi.....	365
<i>To‘xtamurodova Feruza</i>	
Sun‘iy intellekt va raqamli ta‘lim texnologiyalari integratsiyasi asosida oliy ta‘limda fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish.....	369
<i>Usubjonova Durdona Fazliddin qizi</i>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya maqsadlarini o‘yin mexanikasiga integratsiya qilishning interaktiv modulli texnologiyalarini takomillashtirish	373
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Особенности формирования совместной познавательной деятельности в образовательном процессе.....	378
<i>Абдрахманова А. С.</i>	
Влияние корпоративной культуры вуза на формирование профессиональных ценностей студенческой молодежи.....	383
<i>Бекбаев Рауф Рустамович</i>	
MTMgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari.....	389
<i>Boymurodova Surayyo Eshqvat qizi</i>	
Musiqa madaniyati asosida deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik modeli va samaradorligi	393
<i>Jabborova Muattar Xatamovna</i>	

Uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish.....	398
Mamadaliyeva Barnoxon O'ktamovna	
Focusing on the Practical and Technical Aspects of Dutar Performance and Enhancing this Process.....	403
Muyassarxon Adiljanovna Achildieva, Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining professional kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	409
Olloberganova Fazilat Tangriberganovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining vizual kompetensiyalarini rivojlantirishda dizayn tafakkuriga asoslangan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish	415
Shomurodov Oybek Norqulovich	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarda empatiyani rivojlantirishning neyropedagogik texnologiyalari.....	421
Kamaladin Kuronboyevich Matyaqubov	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	425
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	
Talabalar iqtisodiy xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik determinantlari: gender tahlili	431
Yuldosheva Gavhar O'tkirovna	



TALABALARDA IJTIMOIY YETUKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA UNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Rahimova Nazokatxon Kasimdjonovna
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari hamda ularning ta'lim sifatiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy yetuklikning talaba shaxsini shakllantirishdagi o'rni, uning o'quv faoliyati, ichki motivatsiya, refleksiv qobiliyatlar, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy moslashuv va o'zini boshqarish ko'nikmalari bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik mexanizmlar sifatida ichki motivatsiyani shakllantirish, refleksiv faoliyatni rivojlantirish, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, mas'uliyat hissini mustahkamlash hamda shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy yetuklikning rivojlanganlik darajasi ta'lim sifati, akademik faollik va talabaning kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Tadqiqot oliy ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan psixologik yondashuvlarni takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ijtimoiy yetuklik, psixologik mexanizmlar, ta'lim sifati, talaba shaxsi, ichki motivatsiya, refleksiya, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy moslashuv, o'zini boshqarish, shaxs rivojlanishi, oliy ta'lim.

Abstract: This article presents a scientific and theoretical analysis of the psychological mechanisms involved in developing social maturity among students and their impact on the quality of education. The study examines the role of social maturity in student personality formation and its relationship with academic activity, intrinsic motivation, reflective abilities, communicative competence, social adaptation, and self-regulation skills. Particular attention is paid to psychological mechanisms that support the development of social maturity, including the formation of intrinsic motivation, enhancement of reflective activity, strengthening of social interaction, development of responsibility, and creation of a learning environment focused on personal growth. The findings demonstrate that higher levels of social maturity positively influence educational quality, academic engagement, and students' professional preparedness. The study provides theoretical and practical implications for improving psychological approaches within higher education systems.

Key words: social maturity, psychological mechanisms, quality of education, student personality, intrinsic motivation, reflection, communicative competence, social adaptation, self-regulation, personality development, higher education.

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический анализ психологических механизмов развития социальной зрелости у студентов и их влияния на качество образования. В исследовании раскрывается роль социальной зрелости в формировании личности студента, её взаимосвязь с учебной деятельностью, внутренней мотивацией, рефлексивными способностями, коммуникативной компетентностью, социальной адаптацией и навыками саморегуляции. Особое внимание уделено психологическим механизмам развития социальной зрелости, включая формирование внутренней мотивации, развитие рефлексивной активности, усиление социального взаимодействия, укрепление ответственности и создание образовательной среды, ориентированной на личностное развитие. Результаты исследования подтверждают положительное влияние уровня социальной зрелости на качество образования, академическую активность и профессиональную подготовленность студентов. Материалы исследования обладают теоретической и практической значимостью для совершенствования психологических подходов в системе высшего образования.

Ключевые слова: социальная зрелость, психологические механизмы, качество образования, личность студента, внутренняя мотивация, рефлексия, коммуникативная компетентность, социальная адаптация, саморегуляция, развитие личности, высшее образование.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va axborotlashuv sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida nafaqat yuqori malakali mutaxassis tayyorlash, balki ijtimoiy faol, mas'uliyatli, mustaqil fikrlaydigan hamda zamonaviy jamiyat talablariga moslasha oladigan shaxsni shakllantirish vazifasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim sifati tushunchasi faqat akademik bilimlar hajmi bilan emas, balki talabaning ijtimoiy va psixologik rivojlanganlik darajasi bilan ham baholanmoqda.

Zamonaviy oliy ta'lim konsepsiyalarida talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishi ta'lim samaradorligining asosiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy yetuklik talabaning o'quv faoliyatidagi faolligi, mas'uliyat hissi, ijtimoiy munosabatlarga tayyorligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda o'zini rivojlantirish salohiyatini belgilovchi muhim psixologik omil hisoblanadi.

Ijtimoiy yetuklik shaxsning jamiyatdagi o'rnini anglay olishi, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarini qabul qilishi, turli ijtimoiy vaziyatlarda ongli ravishda harakat qilishi hamda o'z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni his etishi bilan tavsiflanadi. Ushbu sifatlar talabalik davrida ayniqsa faol rivojlanadi, chunki bu bosqich shaxsning kasbiy identifikatsiyasi, ijtimoiy pozitsiyasi va hayotiy maqsadlari shakllanadigan muhim davr hisoblanadi ^[1].

Psixologik nuqtai nazardan, ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi ichki motivatsiya, refleksiv tafakkur, emotsional barqarorlik, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy moslashuv va o'zini boshqarish kabi ichki mexanizmlar bilan bog'liq. Mazkur mexanizmlar talabaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatini shakllantiradi va ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim amaliyotida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha turli pedagogik va tashkiliy yondashuvlar ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini tizimli ravishda o'rganish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ko'plab ilmiy ishlarda ta'lim sifati va akademik natijadorlik alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularni talabaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi bilan bog'liq holda tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning ilmiy muammosi talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash va ularning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini nazariy jihatdan asoslash zaruratidan kelib chiqadi ^[2].

Tadqiqotning maqsadi - talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning asosiy psixologik mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularning ta'lim sifatiga ta'sirini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti - oliy ta'lim muassasalari talabalarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti - talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantiruvchi psixologik mexanizmlar va ularning ta'lim sifati bilan o'zaro bog'liqligi.

Tadqiqot vazifalari:

- ijtimoiy yetuklik tushunchasining psixologik mazmunini tahlil qilish;
- ijtimoiy yetuklikni rivojlantiruvchi psixologik mexanizmlarni aniqlash;
- ijtimoiy yetuklik va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish;
- oliy ta'lim amaliyoti uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, talabalar shaxsini kompleks rivojlantirish va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish uchun nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish va uning ta'lim sifatiga ta'siri masalasi zamonaviy psixologiya, pedagogika hamda oliy ta'lim nazariyasining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimining transformatsiyalashuvi, kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining keng qo'llanilishi natijasida talabaning ijtimoiy va psixologik rivojlanganligi ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim mezon sifatida qaralmoqda. Ushbu yo'nalishda John Dewey, Jerome Bruner hamda Lev Vygotskiyning ilmiy qarashlari shaxsning faol ta'lim jarayonida ijtimoiy rivojlanishini asoslab beradi.

Ijtimoiy yetuklik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Umumiy psixologik yondashuvlarga ko'ra, ijtimoiy yetuklik - bu shaxsning jamiyat me'yorlari va qadriyatlarini anglash, ularga ongli ravishda amal qilish, o'z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni qabul qilish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha shaxsning faqat ijtimoiy moslashuvi emas, balki uning ichki rivojlanish darajasini ham ifodalaydi. Mazkur masala Abraham Maslowning ehtiyojlar nazariyasi, Carl Rogersning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi hamda Erik Eriksonning psixosozial rivojlanish konsepsiyasida keng yoritilgan.



Shaxs rivojlanishi nazariyalarida ijtimoiy yetuklikning shakllanishi ko'p bosqichli va murakkab jarayon sifatida ko'riladi. Ushbu jarayon biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta'siri ostida rivojlanadi. Talabalik davri esa ijtimoiy yetuklikning faol shakllanish bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu davrda shaxsning kasbiy yo'nalganligi, ijtimoiy identifikatsiyasi va hayotiy pozitsiyasi shakllanadi. Bu borada Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi hamda Alexei Leontyevning faoliyat nazariyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi ^[4].

Ijtimoiy-kognitiv yondashuvlarga ko'ra, talaba shaxsining rivojlanishi tashqi muhit va ichki psixologik resurslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali yuz beradi. Talabanning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi, maqsadga yo'naltirilganligi va o'quv faoliyatidagi faol ishtiroki uning ijtimoiy yetuklik darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillar hisoblanadi. Ushbu yondashuv Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi hamda o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) konsepsiyasi orqali ilmiy asoslangan ^[5].

Ta'lim psixologiyasi doirasidagi ilmiy qarashlar o'quv motivatsiyasining ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Motivatsiya talabanning ichki ehtiyojlari va maqsadlari bilan belgilanib, bilimlarni egallash sifati, o'quv faolligi va o'zlashtirish natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ichki motivatsiya rivojlangan talaba ta'lim jarayonida faolroq, mustaqilroq va mas'uliyatliroq bo'ladi. Bu masalalar Edward Deci va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) doirasida chuqur tadqiq etilgan ^[6].

Refleksiv yondashuv vakillari refleksiyani shaxs rivojlanishining markaziy mexanizmlaridan biri sifatida baholaydilar. Refleksiya talabanning o'z bilimlari, harakatlari va natijalarini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi hamda rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishiga yordam beradi. Shu sababli refleksiv faoliyat ijtimoiy yetuklikning shakllanishida muhim omil sifatida qaraladi. Bu borada Donald Schönning refleksiv amaliyot nazariyasi hamda John Deweyning refleksiv tafakkur konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega ^[6].

Kommunikativ nazariyalarga ko'ra, ijtimoiy rivojlanish samarali muloqot va hamkorlik orqali amalga oshadi. Oliy ta'lim muhitida talabalarining jamoa bilan ishlashi, akademik muloqotga kirishishi va ijtimoiy faol bo'lishi ularning ijtimoiy yetuklik darajasini oshiradi. Ushbu yo'nalishda Jürgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi hamda David Johnson va Roger Johnsonning hamkorlikda o'qitish konsepsiyalari muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Nazariy manbalar tahlili natijasida talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning quyidagi asosiy psixologik mexanizmlari ajratildi:

- ichki motivatsiyani rivojlantirish mexanizmi;
- refleksiv faoliyatni shakllantirish mexanizmi;
- kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish mexanizmi;
- ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish mexanizmi;
- o'zini boshqarish va mas'uliyatni shakllantirish mexanizmi;
- shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish mexanizmi.

Shuningdek, nazariy tahlillar ijtimoiy yetuklikning ta'lim sifatiga ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki motivatsiya, akademik faollik, kommunikativ jarayonlar va refleksiv faoliyat orqali amalga oshishini ko'rsatdi. Bu esa ijtimoiy yetuklikni ta'lim samaradorligining ichki psixologik resursi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlili talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim psixologik sharti ekanligini hamda bu jarayonni tizimli yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda ularning ta'lim sifatiga ta'sirini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy psixologiya, pedagogika va oliy ta'lim nazariyasining konseptual yondashuvlari asosida ishlab chiqildi hamda shaxs rivojlanishi va ta'lim samaradorligini o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilishga yo'naltirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyat yondashuvi, kompetensiyaviy yondashuv va rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi tashkil etdi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, ijtimoiy yetuklik alohida psixologik sifat emas, balki o'zaro bog'liq ichki va tashqi omillardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida qaraldi. Ushbu tizim tarkibiga motivatsion, refleksiv, kommunikativ, emotsional-regulyativ va ijtimoiy moslashuv komponentlari kiritildi. Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi talabanning ta'lim jarayonidagi samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida baholandi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talaba ta'lim subyekti sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim sifati talabanning shaxsiy ehtiyojlari, ichki imkoniyatlari va individual rivojlanish trayektoriyasi bilan

uzviy bog'liq. Ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi esa shaxsning ichki resurslarini faollashtirish va o'zini anglash jarayonlari orqali amalga oshadi.

Faoliyat yondashuvi doirasida talabaning ijtimoiy yetukligi uning amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi asoslandi. Talabaning o'quv faoliyatida tashabbuskorligi, mustaqil qaror qabul qilishi, o'z faoliyatini nazorat qilishi va natijalarni baholay olishi ijtimoiy yetuklikning muhim ko'rsatkichlari sifatida talqin qilindi.

Kompetensiyaviy yondashuvga muvofiq, ta'lim sifati faqat bilimlar hajmi bilan emas, balki shaxsning hayotiy vaziyatlarda samarali harakat qila olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli ijtimoiy yetuklik zamonaviy kompetensiyalar tizimining tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil metodi - mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish;
- qiyosiy tahlil metodi - ijtimoiy yetuklik va ta'lim sifati bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlarni solishtirish;
- kontent-tahlil metodi - ilmiy manbalardagi asosiy tushunchalar, kategoriyalar va nazariy qarashlarni tizimlashtirish;
- interpretatsion metod - aniqlangan psixologik mexanizmlarni ilmiy izohlash va ularning o'zaro ta'sirini tushuntirish;
- sintez va umumlashtirish metodi - nazariy natijalarni yagona konseptual model asosida integratsiyalash.

Tadqiqotning asosiy mezonlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi:

- o'quv motivatsiyasi darajasi;
- refleksiv qobiliyatlar rivojlanganligi;
- kommunikativ kompetentlik;
- ijtimoiy moslashuv darajasi;
- o'zini boshqarish va o'zini nazorat qilish;
- ijtimoiy mas'uliyat;
- mustaqil qaror qabul qilish salohiyati;
- ta'lim faoliyatidagi faollik.

Nazariy umumlashtirishlar asosida tadqiqotning konseptual modeli ishlab chiqildi. Unga ko'ra:

Psixologik mexanizmlar → ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi → o'quv faolligi → ta'lim sifati → kasbiy va shaxsiy rivojlanish.

Mazkur model ijtimoiy yetuklikning ta'lim sifatiga ta'siri bosqichma-bosqich va tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari yagona nazariy model doirasida tahlil qilinib, ularning ta'lim sifati bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini joriy etish, talabalar bilan individual ishlash tizimini kuchaytirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi psixologik dasturlar ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratishi bilan belgilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlillar natijasida talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim psixologik sharti ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy yetuklikning shakllanishi talabaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati, akademik faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Tahlillar natijasida ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlik bir necha o'zaro bog'liq psixologik mexanizmlar orqali amalga oshishi aniqlandi.

Birinchi natija sifatida ichki motivatsiyaning ijtimoiy yetuklik rivojlanishidagi ustuvor o'rni belgilandi. Ichki motivatsiya rivojlangan talabalar ta'lim jarayonida tashqi nazoratga kamroq ehtiyoj sezadi, o'quv faoliyatida faol ishtirok etadi hamda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga intiladi. Motivatsiyaning shakllanishi talabada o'z oldiga maqsad qo'yish, rejalashtirish va natijalarga erishish mexanizmlarini faollashtiradi.



Ikkinchi muhim natija reflektiv faoliyat bilan bog'liq bo'ldi. Refleksiya talabani o'z ta'lim faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarini aniqlash va rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Reflektiv ko'nikmalarga ega talabalar o'quv jarayonida o'z faoliyatini nazorat qila oladi va ta'lim natijalarini mustaqil yaxshilashga intiladi.

Uchinchi natija kommunikativ kompetentlikning ijtimoiy yetuklik va ta'lim sifati o'rtasidagi vositachi omil sifatida namoyon bo'lishi bilan izohlandi. Samarali muloqot qila oladigan talabalar akademik hamkorlikni muvaffaqiyatli tashkil etadi, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quv jarayonida yuqori faollik namoyon qiladi.

To'rtinchi natija ijtimoiy moslashuvning ta'lim natijadorligiga ta'siri bilan bog'liq bo'ldi. Oliy ta'lim muhiti talabalar yangi ijtimoiy va akademik sharoitlarga moslashishni talab qiladi. Moslashuv darajasi yuqori bo'lgan talabalarda stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik va o'quv faoliyatidagi uzluksizlik yuqoriroq bo'lishi kuzatildi.

Beshinchi natija o'zini boshqarish va mas'uliyat hissining rivojlanganligi bilan bog'liq bo'ldi. Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatdiki, vaqtni boshqarish, maqsadlarni belgilash, qaror qabul qilish va natijalar uchun javobgarlikni his qilish ijtimoiy yetuklikning muhim indikatorlari hisoblanadi.

Nazariy umumlashtirishlar asosida quyidagi o'zaro ta'sir modeli ishlab chiqildi:

Ichki motivatsiya → reflektiv rivojlanish → ijtimoiy yetuklik → akademik faollik → ta'lim sifati → kasbiy shakllanish.

Mazkur modelga ko'ra, ijtimoiy yetuklik ta'lim sifatiga bevosita emas, balki talabani psixologik faolligi va o'quv faoliyatidagi ishtiroki orqali ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama natijalari oliy ta'lim amaliyoti uchun bir qator muhim xulosalarni ko'rsatdi. Avvalo, ta'lim jarayonida talabalar faqat akademik bilimlarini emas, balki ularning psixologik rivojlanish ko'rsatkichlarini ham qo'llab-quvvatlash zarur. Ikkinchidan, ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar, reflektiv mashg'ulotlar va motivatsion dasturlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish samarali natija berishi mumkin.

Shuningdek, professor-o'qituvchilar faoliyatida talabani individual rivojlanish dinamikasini hisobga olish, shaxsiy rivojlanish xaritalaridan foydalanish hamda kommunikativ va reflektiv faoliyatni rag'batlantiruvchi metodlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari ta'lim sifatini oshirishning ichki resursi ekanligini va ularni tizimli ravishda rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim strategik yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'sirini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlandi. Olib borilgan nazariy tahlillar natijasida ijtimoiy yetuklik zamonaviy oliy ta'lim tizimida talaba shaxsining samarali rivojlanishini ta'minlovchi, ta'lim sifatini oshiruvchi hamda kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlovchi muhim psixologik omillardan biri ekanligi asoslandi.

Tadqiqot davomida ijtimoiy yetuklik talabani ichki motivatsiyasi, reflektiv qobiliyatlari, kommunikativ kompetentligi, ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi, o'zini boshqarish salohiyati va mas'uliyat hissining integrallashgan natijasi sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Mazkur omillarning uyg'un rivojlanishi ta'lim jarayonidagi akademik faollikni oshirish, o'zlashtirish sifatini yaxshilash va talabani kasbiy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Nazariy umumlashtirishlar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchi, ijtimoiy yetuklik ta'lim sifati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan kompleks psixologik hodisa hisoblanadi. Talabani ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lishi uning o'quv faoliyatiga ongli yondashuvi, maqsadga intilishi va ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi.

Ikkinchi, ichki motivatsiya ijtimoiy yetuklikning markaziy psixologik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ichki motivatsiyasi shakllangan talabalar mustaqil o'rganishga moyilligi, yuqori mas'uliyat hissi va barqaror o'quv faolligi bilan ajralib turadi.

Uchinchi, reflektiv faoliyat talabalar o'z rivojlanishini baholash, xatolarni tahlil qilish va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ijtimoiy yetuklikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

To'rtinchi, kommunikativ kompetentlik va ijtimoiy moslashuv ta'lim jarayonidagi hamkorlikni kuchaytiradi hamda akademik natijalarning yaxshilanishiga olib keladi.

Beshinchi, o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish va natijalar uchun javobgarlikni qabul qilish talabalar ta'lim sifati ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiluvchi muhim determinantlar hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish;
- ta'lim jarayoniga refleksiya, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga asoslangan interaktiv metodlarni keng tatbiq etish;
- talabalar uchun motivatsion treninglar, kommunikativ rivojlantiruvchi mashg'ulotlar va psixologik seminarlar tashkil etish;
- oliy ta'lim psixologik xizmatlari faoliyatida ijtimoiy yetuklik indikatorlari asosida diagnostik va profilaktik ishlarni yo'lga qo'yish;
- professor-o'qituvchilar faoliyatida talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial yondashuvni kuchaytirish;
- ta'lim sifatini baholash mezonlariga akademik natijalar bilan bir qatorda ijtimoiy va psixologik rivojlanish indikatorlarini ham kiritish.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida talaba shaxsining kompleks rivojlanishini ta'minlash, psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda ijtimoiy yetuklikni empirik o'lchash metodikalarini ishlab chiqish, eksperimental tadqiqotlar o'tkazish hamda turli ta'lim bosqichlarida uning rivojlanish dinamikasini qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. - 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 592 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga oid farmon va qarorlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
6. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1986.
7. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. - New York: Plenum Press, 1985.
8. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. - New York: W.W. Norton & Company, 1968.
9. Maslow A.H. Motivation and Personality. 3rd ed. - New York: Harper & Row, 1987.
10. Rogers C.R. Freedom to Learn for the 80s. - Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1983.
11. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 1978.
12. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Политиздат, 1975.
13. Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. - Москва: Смысл, 2007.
14. Андреева Г.М. Социальная психология. - Москва: Аспект Пресс, 2001.
15. Зимняя И.А. Педагогическая психология. - Москва: Логос, 2004.
16. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.
17. Nishonova Z.T., Alimuhamedov S.A. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. - Toshkent, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.